

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING  
QARORI**

**O‘ZBEKISTON JURNALISTIKA VA OMMAVIY KOMMUNIKATSIYALAR  
UNIVERSITETINI TASHKIL ETISH TO‘G‘RISIDA**

Jahon axborot makoni globallashuvining kuchayishi ommaviy axborot vositalari sohasida dunyoda sodir bo‘layotgan voqealarga tez va mos ravishda munosabat bildirish, O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan demokratik qayta o‘zgarishlar haqida respublika aholisini, dunyo hamjamiyatini o‘z vaqtida va xolisona xabardor qilish tizimini takomillashtirish masalasi eng dolzarb vazifalardan biriga aylanib bormoqda.

Ommaviy axborot vositalarining rivojlanishi, davlat va nodavlat davriy bosma nashrlar, teleradiostudiyalar, tahririyat-matbaa komplekslarining miqdor va sifat jihatidan o‘sishi, fuqarolik jamiyati institutlari, reklama agentliklari, axborot xizmatlari, media kommunikatsiya, internet jurnalistikasining shakllanishi raqobatbardosh, yangicha shart-sharoitlarda ishlay oladigan jurnalist kadrlarni tayyorlash zaruratini taqozo etmoqda.

Jamiyatimiz hayotida demokratik prinsiplarni mustahkamlashda ommaviy axborot vositalari muhim va ta’sirchan omil hisoblanadi. Bu borada chinakam milliy jurnalistika maktabini shakllantirish, xususan, nodavlat ommaviy axborot vositalarini, axborot va Internet tarmog‘idagi tahliliy saytlarni qo‘llab-quvvatlashga e’tibor qaratish muhim ahamiyatga egadir.

Bugungi kunda yurtimizda 1500 dan ziyod ommaviy axborot vositalari faoliyat ko‘rsatmoqda. Ularning barchasiga yuqori malakali kadrlar zarur. Biroq, mamlakatimizda bunday keng ko‘lamli vazifani hal etadigan tayanch oliy ta’lim muassasasi mavjud emas.

Harakatlar strategiyasini “Faol tadbirkorlik, innovatsion g‘oyalar va texnologiyalarni ko‘llab-quvvatlash yili”da amalga oshirishga oid Davlat dasturining ijrosini ta’minlash, shuningdek, hozirgi tez o‘zgarayotgan globallashuv davrida jurnalistikaning o‘ziga xos xususiyatlari, tarixiy taraqqiyoti, bugungi holati va istiqboli bilan bog‘liq masalalarni chuqur o‘rganish, bu borada olib borilayotgan ilmiy tadqiqot va ijodiy ishlar samaradorligini ta’minlash hamda ushbu soha uchun yuqori malakali kadrlar tayyorlashning sifatini tubdan oshirish maqsadida:

1. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi tizimida O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti (keyingi o‘rinlarda Universitet deb yuritiladi) tashkil etilsin.

2. Belgilab qo‘yilsinki, Universitet ommaviy axborot vositalari sohasi uchun jurnalist kadrlar, shu jumladan, yuqori malakali, bir necha xorijiy tillarni mukammal biladigan xalqaro jurnalistlar hamda ilmiy-pedagog kadrlarni tayyorlash, ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish, respublikada mediata’lim tizimini yaratish, soha xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish, mazkur yo‘nalishlarda ilmiy va o‘quv-metodik materiallarni ishlab chiqish bo‘yicha tayanch oliy ta’lim muassasasi hisoblanadi.

3. Quyidagilar Universitetning asosiy vazifalari etib belgilansin:

jurnalistika sohasini, uning o‘ziga xos xususiyatlari, ilmiy-nazariy, falsafiy-estetik asoslari, zamonaviy mediateknologiyalarni chuqur o‘zlashtirgan, yuqori malakali jurnalist kadrlarni milliy va xalqaro standartlar darajasida sifatli tayyorlashni ta’minlash;

mamlakatimizning ommaviy kommunikatsiya va jurnalistika sohasida erishgan yutuqlari, xorijiy mamlakatlar ta’lim muassasalarining tajribasi va hududlarda faoliyat olib borayotgan ommaviy axborot vositalarining talab va ehtiyojlarini hisobga olgan holda, tegishli yo‘nalishlar hamda mutaxassisliklar bo‘yicha o‘quv-uslubiy adabiyotlarni yaratish, shuningdek, o‘quv jarayoniga zamonaviy axborot texnologiyalarini va masofadan o‘qitish usullarini joriy etish;

jurnalistika sohasi ta’limini rivojlantirishning ilmiy-metodik vazifalarini hal etish, ilg‘or xorijiy texnologiyalarni joriy qilishga yo‘naltirilgan ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish va iqtidorli talaba-yoshlarni ilmiy faoliyat bilan shug‘ullanishga keng jalb etish;

o'quv va ilmiy loyihalarni amalga oshirish, ta'lim va ilmiy izlanishlar jarayoniga mutaxassislarini keng jalb etish maqsadida pedagogika sohasidagi yetakchi respublika va xorijiy oliy ta'lim muassasalari hamda ilmiy markazlari bilan hamkorlik aloqalarini rivojlantirish;

istiqboli yosh bitiruvchilarni xorijiy oliy ta'lim muassasalari va ilmiy markazlarining magistratura va doktoranturasida ta'lim olish uchun muntazam yuborish orqali Universitetning ilmiy-pedagogik salohiyatini oshirib borish;

respublika ommaviy axborot vositalari mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish, ilmiy-metodik bazasini shakllantirish va o'quv-metodik rahbarlikni amalga oshirish.

#### 4. Quyidagilar:

O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universitetining tuzilmasi [1-ilovaga](#) muvofiq;

2018 — 2021-yillarda O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universitetini rivojlantirish chora-tadbirlar dasturi [2-ilovaga](#) muvofiq tasdiqlansin.

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vaziriga, zarur hollarda, Universitet tuzilmasiga oliy ta'lim muassasasi uchun belgilangan normativlarga muvofiq xodimlarning umumiy cheklangan soni doirasida o'zgartirishlar kiritish huquqi berilsin.

5. 2018/2019 o'quv yilida O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universitetida bakalavrlar va magistrlar tayyorlash bo'yicha qabul kvotalari [3-ilovaga](#) muvofiq tasdiqlansin.

#### Qayd etilsinki:

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tavsiyasi asosida Universitetning tegishli ta'lim yo'nalishlari bo'yicha abituriyentlarni oliy ta'lim muassasasiga o'qishga qabul qilish kirish test sinovlari bilan bir qatorda ularning kasb layoqatini aniqlashga qaratilgan kasbiy (ijodiy) imtihon (yozma va suhbat shaklida) o'tkazish orqali amalga oshiriladi;

2018/2019 o'quv yilidan boshlab Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti va O'zbekiston davlat jahon tillari universitetida "Jurnalistika (faoliyat turlari bo'yicha)" ta'lim yo'nalishi va uning negizidagi magistratura mutaxassisliklari, shu jumladan, "Oliy jurnalistika kurslari" bo'yicha qabul to'xtatiladi hamda ushbu ta'lim yo'nalishi va uning negizidagi tegishli magistratura mutaxassisliklari bo'yicha ta'lim olayotgan talabalar o'qishni bitirgunlariga qadar mazkur oliy ta'lim muassasalarida o'qishini davom ettiradilar;

2019/2020 o'quv yilidan boshlab Universitetga talabalarni bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari bo'yicha qabul qilish soni har yili belgilangan tartibda tasdiqlanadigan respublika oliy ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilish kvotalaridan kelib chiqqan holda belgilanadi.

6. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi kadrlar buyurtmachilarining ehtiyojlarini o'rganib chiqib, O'zbekiston Respublikasi ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilish bo'yicha Davlat komissiyasiga Universitetning sirtqi ta'lim shakli bo'yicha qabul kvotalarini shakllantirish yuzasidan bir oy muddatda taklif kiritilsin.

Qayd etilsinki, sirtqi ta'lim shakli bo'yicha qabul kvotalari 2018/2019 o'quv yilida Universitet bakalavriat ta'lim yo'nalishlari uchun belgilangan qabul kvotalarining o'ttiz foizigacha bo'lgan miqdorda belgilanadi.

7. Belgilansinki, Universitet uchun bir nafar o'qituvchi hisobiga to'g'ri keladigan talabalar soni nisbatining cheklangan normativi 1:6,0 nisbatda o'rnatiladi va Universitet professor-o'qituvchilarining bazaviy lavozim maoshlari miqdoriga o'ttiz foiz ustama qo'shib hisoblanadi.

#### 8. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi:

bir oy muddatda Universitet ustavini davlat ro'yxatidan o'tkazilishi choralari ko'rsin;

2018-yil 15-iyungacha qadar Universitetning bo'limlari, fakultetlari va kafedralarini shakllantirishni, tasdiqlangan tuzilmaga muvofiq professor-o'qituvchilar tarkibini yuqori malakali, ta'lim tizimida zamonaviy bilimlarga, shuningdek, amaliy ish tajribasiga ega mutaxassislar bilan to'ldirilishini, professor-o'qituvchilarning kasbiy mahorati va darajasini uzluksiz oshirish uchun

sharoitlar yaratilishini, o'quv jarayoniga yuqori malakali xorijiy olimlar, professor-o'qituvchilar va mutaxassislar keng jalb etilishini ta'minlasin;

2018-yil 15-iyulga qadar jurnalistika sohasida kadrlar tayyorlashga oid ilg'or xorijiy tajriba asosida o'quv rejaları va fan dasturlari, o'quv-metodik materiallar va qo'llanmalar ishlab chiqilishini va kafedralarga yetkazilishini ta'minlasin;

manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda talabalarning malakaviy amaliyotlarini belgilangan tartibda milliy, shuningdek, ilg'or xorijiy ommaviy axborot vositalari bazasida tashkil etish choralari ko'rsin;

Universitetning boshlang'ich faoliyatini samarali tashkil etish maqsadida uning bino va inshootlarini joriy ta'mirlash va jihozlash (mebellar, kompyuter texnikasi, o'quv adabiyotlari va boshqa moddiy-texnika vositalari) uchun O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining Oliy ta'lim muassasalarini rivojlantirish jamg'armasi mablag'laridan foydalansin.

9. Universitet kadrlar buyurtmachilari ro'yxati va ularga biriktiriladigan talabalar soni [4-ildovaga](#) hamda bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklarining amaliyot o'tash obyektlariga biriktirilishi [5-ildovaga](#) muvofiq tasdiqlansin.

10. Quyidagilar Universitetda yuqori malakali kadrlar tayyorlash bo'yicha kadrlar buyurtmachilarining asosiy vazifalari etib belgilansin:

korxonalar va tashkilotlar obyektlarida talabalarning amaliyotini tashkil qilish va "ustoz-shogird" tizimi asosida o'talishini ta'minlash hamda talabalarni ishlab chiqarishning yangi me'yoriy hujjatlari, zamonaviy axborot dasturiy ta'minot mahsulotlari bilan yaqindan tanishtirish;

ishlab chiqarish korxonalar va tashkilotlaridan tayinlangan malakaviy amaliyot rahbarlariga asosiy ish joyidan qo'shimcha ish haqlarini tayinlash;

manfaatdor vazirlik va idoralar tasarrufidagi boshqarmalar va ularning tarkibidagi korxonalar va tashkilotlardan malakali, tajribali mutaxassislarni ta'lim jarayonida ishtirokini ta'minlash;

korxonalar va tashkilotlarda professor-o'qituvchilarning stajirovkalari uchun shart-sharoitlar hamda kafedralarning filiallarini tashkil etish va amaliy mashg'ulotlar o'tish imkoniyatini yaratish.

Kadrlar buyurtmachilari talaba bilan o'qishni bitirganidan so'ng 5 yil ishlab berish majburiyatini belgilovchi shartnoma tuzish orqali uning bazaviy to'lov kontraktini 2-bosqichda kamida 50 foiz, 3-bosqichda kamida 75 foiz va 4-bosqichda 100 foiz miqdorda to'lab berishi mumkinligi qayd etilsin.

*Oldingi tahrirga qarang.*

11. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Mutaxassislarni xorijda tayyorlash va vatandoshlar bilan muloqot qilish bo'yicha "El-yurt umidi" jamg'armasi manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda Universitetning professor-o'qituvchilari va ilmiy xodimlarini xorijiy oliy ta'lim muassasalari va ilmiy markazlariga malakasini oshirish va doktoranturaga yuborish, talabalarning malakaviy amaliyot o'tashini muntazam tashkil etsin.

*(11-band O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 30-maydagi PF-5733-sonli Farmoni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 30.05.2019-y., 06/19/5733/3216-son)*

12. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi hamda Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining Universitetda jurnalistika sohasi bo'yicha ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ochish to'g'risidagi taklifi ma'qullansin.

13. Quyidagilar Universitet faoliyatini moliyalashtirish manbalari etib belgilansin:

O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti mablag'lari;

to'lov-kontrakt asosida o'qitishdan tushadigan mablag'lar;

xo'jalik faoliyatidan va shartnomalar asosida xizmatlar ko'rsatishdan tushadigan tushumlar;

jismoniy va yuridik shaxslarning homiylik xayriyalari;

xalqaro moliya tashkilotlarining grantlari;

qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar.

14. Toshkent shahar hokimligi hamda O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining Toshkent shahri, Yunusobod tumani, Markaz-5, 88-uyda joylashgan Yunusobod dizayn

kasb-hunar kollejining bino va inshootlarini tegishli hududi bilan birga Universitetga operativ boshqarish huquqi asosida bepul berish to'g'risidagi taklifiga rozilik berilsin.

Belgilab qo'yilsinki, Yunusobod dizayn kasb-hunar kollejining o'quvchilari o'qishni bitirgunlariga qadar Universitet binolarida o'quv jarayonini davom ettiradilar.

15. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi bir oy muddatda:

Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi bilan birgalikda Universitetni onlayn ma'ruza hamda masofaviy ta'lim uchun telekommunikatsiya jihozlari va infratuzilmasi bilan ta'minlash, shuningdek, Internet hamda elektron ta'lim milliy tarmog'iga ulash choralari ko'rish yuzasidan chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqsin va tasdiqlasin;

Iqtisodiyot vazirligi, Moliya vazirligi va Investitsiyalar bo'yicha davlat qo'mitasi bilan birgalikda Universitetning bino va inshootlarini qurish, rekonstruksiya qilish, kapital ta'mirlash hamda jihozlash ishlarini 2019-yil va keyingi yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining rivojlantirish davlat dasturlari doirasida amalga oshirilishi bo'yicha asoslangan takliflar ishlab chiqsin.

16. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi:

Universitetni saqlash xarajatlarini 2018-yilda ijtimoiy soha bo'yicha tasdiqlangan budjet parametrlari doirasida ajratishni, 2019-yildan boshlab esa O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti parametrlarida nazarda tutsin;

Universitetga 2 ta, shu jumladan, 1 ta xizmat va 1 ta maxsus yengil avtotransport vositasini saqlash uchun limit ajratsin.

17. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi:

bir oy muddatda O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti Vasiylik kengashining tarkibini tasdiqlasin;

Universitetning moddiy-texnika bazasini yaratish, shu jumladan, talabalar turar joyini qurish va jihozlash, kichik bosmaxona va o'quv telestudiyasi faoliyatini yo'lga qo'yish bo'yicha zarur choralar ko'rsin.

18. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda bir oy muddatda qonun hujjatlariga ushbu qarordan kelib chiqadigan o'zgartirish va qo'shimchalar to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritsin.

19. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A.N. Aripov, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Davlat maslahatchisi R.S. Qosimov, O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o'rinbosari Q.V. Akmalov va O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vaziri I.U. Madjidov zimmasiga yuklansin.

**O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. MIRZIYOYEV**

Toshkent sh.,  
2018-yil 24-may,  
PQ-3737-son

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 24-maydagi PQ-3737-son qaroriga  
1-ILOVA

**O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universitetining**

**TUZILMASI**



Universitet (fakultetlar, kafedralar va boshqa tarkibiy bo'linmalar) xodimlarining umumiy cheklangan soni oliy ta'lim muassasalari uchun belgilangan normativlarga muvofiq aniqlanadi.

\* Budjetdan tashqari mablag'lar hisobidan saqlanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 24-maydagi PQ-3737-son qaroriga  
2-ILOVA

**2018 — 2021-yillarda O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universitetini rivojlantirish**

**CHORA-TADBIRLAR DASTURI**

*Oldingi tahrirga qarang.*

<b>T/r</b>	<b>Chora-tadbirlar nomi</b>	<b>Amalga oshirish mexanizmi</b>	<b>Muddati</b>	<b>Moliyalashtirish manbai</b>	<b>Mas’ullar</b>
<b>I. Universitetda ta’lim sifatini oshirish, yuqori malakali hamda zamonaviy bilimlarga ega kadrlarni tayyorlash, professor-o‘qituvchilar malakasini oshirish</b>					
1.	Universitet ustavi, fakultetlar va kafedralarning tegishli hujjatlarini shakllantirish.	1. Universitet ustavini ishlab chiqish va davlat ro‘yxatidan o‘tkazish. 2. Yuqori malakali kadrlarni tayyorlash, ilmiy-tadqiqot ishlarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan fakultet, bo‘lim va kafedralar hujjatlarini ishlab chiqish va tasdiqlash.	2018-yil iyun	-	Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi, O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti
2.	Bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari va magistratura mutaxassisliklari talabalarining fanlardan nazariy bilim, amaliy ko‘nikma va malakalarini davlat ta’lim standartlari, malaka talablari darajasida egallashi hamda chet tillarini mukammal bilishi uchun amaliy mashg‘ulotlar hamda malaka amaliyotlari tegishli tarmoqning muayyan tashkilotlarida o‘tkazilishini tashkil etish.	1. Ta’lim yo‘nalishlari va magistratura mutaxassisliklari xususiyatidan kelib chiqib, ularda ta’lim olayotgan talabalar kontingentini tegishli tashkilotlarga birlashtirish va shartnomalar tuzish. 2. Ta’lim yo‘nalishlari va magistratura mutaxassisliklarining malaka talablari, o‘quv rejasi, fan dasturlari hamda o‘quv adabiyotlarini sohaning nazariy va amaliy muammolaridan, ilg‘or xorijiy tajribalardan hamda ilmiy tadqiqot natijalaridan kelib	2018-yil dekabr	-	Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi, O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti, O‘zbekiston Milliy axborot agentligi, O‘zbekiston Matbuot va axborot agentligi, O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi, O‘zbekiston Jurnalistlari ijodiy uyushmasi

		chiqqan holda yangilash. 3. Shartnoma asosida amaliy mashgʻulotlar va malakaviy amaliyotni oʻquv jarayoni jadvali asosida tashkil etish, ushbu jarayonni nazorat qilish uchun universitet va tashkilot vakillarini biriktirish.			
3.	Universitet professor-oʻqituvchilarining zamonaviy talablar asosida bilim va koʻnikmalarini oshirish maqsadida ishlab chiqarish tashkilotlarida olib borilayotgan texnologik yangilanishlar, joriy etilayotgan innovatsion texnologiyalar toʻgʻrisida maʼlumot olishlari uchun tashkilotlarda stajirovkalarini hamda tashkilot hisobidan xorijda malaka oshirish (stajirovka)larini tashkil etish.	1. Soha tashkilotlarida professor-oʻqituvchilar stajirovkalarini tashkil etish. 2. Stajirovka yakunida tashkilotlardagi yangi texnika va texnologiyalarni oʻzlashtirish hamda muammolarni oʻrganish darajasini Universitet va tashkilot vakillaridan iborat komissiyada himoya qilish.	2018-yildan boshlab, doimiy	-	Oʻzbekiston Milliy axborot agentligi, Oʻzbekiston Matbuot va axborot agentligi, Oʻzbekiston Milliy teleradiokompaniyasi, Oliy va oʻrta maxsus taʼlim vazirligi, Oʻzbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti, Oʻzbekiston Jurnalistlari ijodiy uyushmasi
4.	Respublika ommaviy axborot vositalari tarmoqlarining real ehtiyojlarini eʼtiborga olgan holda Universitetda yangi taʼlim yoʻnalishlari va magistratura mutaxassisliklari boʻyicha kadrlar tayyorlash.	1. Ommaviy axborot vositalarining kadrlarga boʻlgan ehtiyojini oʻrganish va tahlil qilish. 2. Mavjud ehtiyoj asosida 2018/2019 oʻquv yilidan boshlab, bakalavriat taʼlim yoʻnalishlari va magistratura mutaxassisliklari boʻyicha yuqori malakali kadrlar tayyorlash.	2018-yildan boshlab, doimiy	-	Oliy va oʻrta maxsus taʼlim vazirligi, Iqtisodiyot vazirligi, Oʻzbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti, Oʻzbekiston Milliy axborot agentligi, Oʻzbekiston Jurnalistlari ijodiy uyushmasi

5.	<p>Ommaviy axborot vositalari tashkilotlari va ta'lim muassasalari, xususi sektorning ilmiy-ijodiy muammolari asosida bitiruv malakaviy ishi va magistrlik dissertatsiyalari mavzulari bankini yaratish hamda tashkilotlar rahbarlari va mutaxassislarining yakuniy davlat attestatsiyalarida ishtirok etishini ta'minlash.</p>	<p>1. Professor-o'qituvchilarning hamkor tashkilotlardagi stajirovka natijalari asosida bakalvriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari kesimida bitiruv malakaviy ishi hamda magistrlik dissertatsiyalari mavzulari bankini shakllantirish.  2. Ishlab chiqarish tashkilotlarining yetakchi mutaxassislarini tashkilot muammolarini hisobga olgan holda shakllantirilgan mavzular bo'yicha bitiruv malakaviy ishi va magistrlik dissertatsiyalariga ilmiy rahbarlikka biriktirish.  3. Bitiruv malakaviy ishi va magistrlik dissertatsiyalari himoyasi yuzasidan Yakuniy davlat attestatsiyasi komissiyalari tarkibida ishlab chiqarish tashkilotlarining vakillari ishtirokini ta'minlash.</p>	doimiy	-	<p>Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti, O'zbekiston Milliy axborot agentligi, O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi, O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi, O'zbekiston Jurnalistlari ijodiy uyushmasi</p>
6.	<p>Bakalvriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari fanlarini zamonaviy darslik, o'quv-uslubiy, ilmiy-metodik va elektron adabiyotlar bilan ta'minlash.</p>	<p>1. Ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari o'quv rejalari hamda fan dasturlarini tanqidiy tahlil qilish.  2. Xorijiy davlatlar yetakchi oliy ta'lim muassasalarining tegishli bakalvriat ta'lim yo'nalishlari</p>	2018-yildan boshlab, doimiy	<p>O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universitetining budjet va budjetdan tashqari mablag'lari doirasida</p>	<p>Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti, O'zbekiston Milliy axborot agentligi, O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi,</p>

		<p>va magistratura mutaxassisliklarining o'quv rejalari va fan dasturlaridagi ilg'or tajribalarni joriy etish.</p> <p>3. Sohaning yetakchi mutaxassislaridan iborat xorijiy adabiyotlar asosida o'quv adabiyotlarini yaratuvchi mualliflar guruhini shakllantirish, zamonaviy o'quv adabiyotlarini yaratish.</p> <p>4. Ta'lim jarayoniga o'qitishning ilg'or texnologiyalari, modul va interaktiv o'qitish usullarini keng joriy etish hamda talabalarning zamonaviy axborot resurslaridan erkin foydalanishi uchun zaruriy shart-sharoitlarni yaratish.</p>			O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi, O'zbekiston Jurnalistlari ijodiy uyushmasi
7.	Ta'lim jarayonini zamonaviy axborot-kommunikatsiya vositalarini qo'llagan holda sifatli tashkil etish maqsadida elektron ta'lim resurslarini shakllantirish.	<p>1. Asosiy darslik va o'quv qo'llanmalarini elektron shaklga o'tkazish.</p> <p>2. Axborot-resurs markazlarining avtomatlashtirilgan tizimiga elektron ta'lim resurslarini joylashtirish.</p>	doimiy	O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universitetining budjetdan tashqari mablag'lari doirasida	O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti
8.	Ta'lim jarayoniga xalqaro ta'lim standartlariga asoslangan ilg'or ta'lim texnologiyalari va o'qitish usullarini joriy etish.	<p>1. Universitet professor-o'qituvchilarini chet davlatlarning yetakchi o'quv va ilmiy markazlariga malaka oshirish (stajirovka)ga yuborish.</p> <p>2. Xorijda malaka oshirgan professor-o'qituvchilarning</p>	2018-yildan boshlab, reja asosida	Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Mutaxassislarni xorijda tayyorlash va vatandoshlar bilan muloqot qilish bo'yicha "El-yurt umidi" jamg'armasi mablag'lari, O'zbekiston	Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Mutaxassislarni xorijda tayyorlash va vatandoshlar bilan muloqot qilish bo'yicha "El-yurt umidi" jamg'armasi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, O'zbekiston jurnalistika



		<p>mahorat darslarini tashkil etish, ta'lim jarayoniga ilg'or ta'lim texnologiyalari va o'qitish usullarini joriy etish.</p> <p>3. Chet el mutaxassislarini jalb etgan holda ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish.</p>		<p>jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universitetining budjet va budjetdan tashqari mablag'lari doirasida</p>	<p>va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti</p>
9.	<p>Mamlakatimizning yetakchi professor-o'qituvchilari va olimlarini Universitet ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklarining fanlari bo'yicha dars berishga jalb etish.</p>	<p>Etakchi oliy ta'lim muassasalari hamda O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining ilmiy-tadqiqot institutlaridan malakali va salohiyatli professor-o'qituvchilar hamda olimlarni Universitetning tegishli kafedralariga jalb qilish.</p>	doimiy	<p>O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universitetining budjet va budjetdan tashqari mablag'lari doirasida</p>	<p>Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti, O'zbekiston Jurnalistlari ijodiy uyushmasi</p>
10.	<p>Iqtidorli talabalarining ilmiy-ijodiy jamiyatini tashkil etish, press-klub ochish.</p>	<p>1. Universitetning faol va iqtidorli talabalarining qiziqishlarini e'tiborga olgan holda, ularni ilmiy-tadqiqot va ijodiy guruhlariga jalb qilish mexanizmini shakllantirish.</p> <p>2. Universitet hududida "Buk-kafe"lar faoliyatini yo'lga qo'yish.</p>	doimiy	<p>O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universitetining budjetdan tashqari mablag'lari doirasida</p>	<p>O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti</p>
11.	<p>Ijodiy mahorat maktablarini tashkil etish.</p>	<p>Professor-o'qituvchilarni, olimlarni biriktirgan holda "ustoz-shogird" tizimini joriy etish.</p>	doimiy	-	<p>O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti</p>
12.	<p>Respublika ommaviy axborot vositalari, davlat hokimiyati va boshqaruv organlarining</p>	<p>1. O'zbekistonning xorijiy davlatlardagi diplomatik vakolatxonalarida Universitet</p>	doimiy	<p>O'zbekiston Jurnalistlari ijodiy uyushmasi mablag'lari</p>	<p>Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, O'zbekiston jurnalistika va ommaviy</p>

<p>axborot xizmatlari, mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan xalqaro tashkilotlar vakolatxonalari, turli jamg'armalarda talabalarning amaliyot o'tash tizimini yanada takomillashtirish, tajribali amaliyotchilar rahbarligidagi "mahorat maktab"lari faoliyatini kengaytirish.</p>	<p>professor-o'qituvchilari va talabalari uchun 3-4 haftalik malakaviy amaliyotlarni tashkil etish bo'yicha zarur chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqib, belgilangan tartibda kelishuvdan o'tkazish.</p> <p>2. Universitetdan har yili iqtidorli talabalarni mazkur diplomatik vakolatxonalarga amaliyot o'tash uchun yuborish.</p> <p>3. Respublikadagi yirik ommaviy axborot vositalari (O'zMTRK, O'zEOAVMA, O'zA, "Dunyo" AA, "Xalq so'zi", "Ma'rifat", "Uzbekistan Today", "Hurriyat", Xalqaro press-klub va b.) tahririyatlari hamda vazirlik va idoralar axborot xizmatlari bilan Universitet hamkorligini yanada mustahkamlash.</p> <p>4. Tajribali amaliyotchi jurnalistlar rahbarligidagi "mahorat maktab"lari faoliyatini zamon talablari darajasiga ko'tarish.</p> <p>5. Universitet talabalarining mahoratini oshirish uchun ularni vazirlik va idoralarning axborot xizmatlariga jalb etish.</p>	<p>kommunikatsiyalar universiteti, O'zbekiston Jurnalistlari ijodiy uyushmasi, O'zbekiston Milliy axborot agentligi, O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi, O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi</p>
--	--	--

**II. Universitet ilmiy salohiyatni oshirish, ommaviy axborot vositalari sohalari bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borish, innovatsion hamkorlikni yo'lga qo'yish**

13.	Oliy ta'lim — ilmfan — ishlab chiqarish integratsiyasi asosida amaliyotga yo'naltirilgan ilmiy faoliyatni yo'lga qo'yish.	1. Ommaviy axborot vositalariga qarashli tarmoq (soha) tashkilotlarining ilmiy-texnik rivojlantirish yo'nalishlari muammolariga bag'ishlangan mavzular bazasini shakllantirish. 2. Mavzular bazasidan foydalangan holda Universitetda xo'jalik shartnomalari (grantlar loyihalari), bitiruv malakaviy ishlari, magistrlik va doktorlik dissertatsiyalarini bajarish.	doimiy	-	Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti, O'zbekiston Milliy axborot agentligi, O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi, O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi
14.	Universitet professor-o'qituvchilari va tadqiqotchilarini, talabalarni jurnalistika sohasining ilmiy-texnik muammolariga yo'naltirilgan ilmiy-tadqiqot ishlariga jalb qilish.	1. Jurnalistika sohasining ilmiy-texnik muammolari bazasini shakllantirish va doimiy yangilab borish. 2. Universitet professor-o'qituvchilari va tadqiqotchilarini, talabalarni jurnalistika sohasining ilmiy-texnik muammolariga yo'naltirilgan ilmiy-tadqiqot ishlariga biriktirish. 3. Olingan natijalar amaliyotga joriy etilishiga, ular asosida xorijiy va mahalliy ilmiy jurnallarda maqolalar chop	doimiy	Davlat ilmiy-texnika dasturlari doirasida o'tkazilgan tanlov natijalari bo'yicha grantlarga ajratilgan mablag'lar	Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti, O'zbekiston Jurnalistlari ijodiy uyushmasi

		etilishida amaliy yordam ko'rsatish.			
15.	Bugungi kun talablaridan kelib chiqib, yuqori natijadorlikka erishishga yo'naltirilgan ilmiy izlanishlarni olib borish orqali Universitetning ilmiy salohiyatini oshirish.	<p>1. Universitetning ilmiy salohiyatini oshirish uchun mutaxassislik yo'nalishlaridan kelib chiqib, falsafa doktori (PhD) hamda fan doktor (DSc)larini yetakchi oliy ta'lim muassasalari va Fanlar akademiyasining ilmiy-tadqiqot institutlarida maqsadli tayyorlashni yo'lga qo'yish.</p> <p>2. Etakchi oliy ta'lim muassasalari va Fanlar akademiyasining ilmiy-tadqiqot institutlariga yosh o'qituvchilarni birlashtirish, professor-o'qituvchilar va xodimlarni ilmiy-tadqiqot ishlariga faol jalb etish.</p> <p>3. Universitet axborot-resurs markazini xorijiy davlatlarning ilmiy jurnallari, yetakchi davriy nashrlari bilan doimiy ta'minlash, shu bilan birga professor-o'qituvchilar, tadqiqotchilarning xorijiy mamlakatlarda o'tkaziladigan xalqaro konferensiyalar, simpoziumlar va seminarlardagi ishtiroklarini rasmiy</p>	doimiy	O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universitetining budjet va budjetdan tashqari mablag'lari doirasida	Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti, O'zbekiston Jurnalistlari ijodiy uyushmasi

		tartibda yo'lga qo'yish.			
<b>III. Universitetda ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish, ijtimoiy-ma'naviy muhitni yanada sog'lomlashtirish hamda yoshlarga yuksak ma'naviyat g'oyalarini chuqur singdirish ishlarida ularning ishtirokini kengaytirish</b>					
16.	Universitetda ma'naviy-ma'rifiy ishlarni yo'lga qo'yish, ularning samaradorligini oshirish va yanada takomillashtirish.	<p>1. Ma'naviy-ma'rifiy va tarbiyaviy ishlar bo'yicha boshqa oliy ta'lim muassasalaridagi ilg'or ish tajribalarini o'rganish va ularni ommalashtirish, aniq manzilli yillik ish rejalarini ishlab chiqish hamda amalga oshirishni ta'minlash.</p> <p>2. Universitet axborot-resurs markazi, fakultetlari, kafedralarining ma'naviy-ma'rifiy yo'nalishdagi uslubiy materiallar, ko'rgazmali targ'ibot vositalari, ma'naviy-ma'rifiy va badiiy adabiyotlar, uslubiy qo'llanmalar bilan ta'minlanganlik darajasini aniqlab, tegishli chora-tadbirlarni amalga oshirish.</p> <p>3. Axborot-resurs markazida talabalar va professor-o'qituvchilarning ma'naviy-ma'rifiy sohaga oid adabiyotlardan foydalanish monitoringini olib borish hamda natijalarini Universitet (fakultet) Kengashida muhokama etib borish.</p> <p>4. "Yangi kitoblar va uslubiy materiallar</p>	doimiy	O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universitetining budget va budgetdan tashqari mablag'lari doirasida	Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti, O'zbekiston Jurnalistlari ijodiy uyushmasi

		ko'rgazmasi" tadbirlarini o'tkazish. 5. Talabalar o'rtasida kitobxonlik madaniyatini shakllantirishga yo'naltirilgan tadbirlar, tanlovlar tizimli o'tkazilishini yo'lga qo'yish.			
17.	Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan tavsiya etilgan "Oliy ta'lim muassasalarining odob-axloq qoidalari" bo'yicha professor-o'qituvchilar va talabalar o'rtasida keng tushuntirish ishlarini olib borish.	1. Ishchi guruhni tuzish, "Oliy ta'lim muassasalarining odob-axloq qoidalari" bo'yicha professor-o'qituvchilar va talabalar o'rtasida keng tushuntirish ishlarini olib borish. 2. Ushbu qoidalarga rioya etish bo'yicha monitoring ishlarini amalga oshirish, uning natijalarini muhokama etib, zarur choralar ko'rib borish.	2018/2019 o'quv yilidan boshlab, reja asosida har oyda bir marta	-	O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti, O'zbekiston yoshlar ittifoqining universitetdagi boshlang'ich tashkiloti
18.	Ijtimoiy-ma'naviy muhitni yanada sog'lomlashtirish yuzasidan so'rovlar o'tkazish, so'rovlar natijalarini Universitet (fakultet) Kengashida muhokama qilish asosida tegishli chora-tadbirlar belgilab borish.	1. Universitet ma'muriyatida talabalar muammolarini o'z vaqtida qayd qilish va hal qilishga qaratilgan "Ochiq eshiklar kuni"ni tashkil etish. 2. Ta'lim-tarbiya jarayonlarining darajasi va sifati haqida ijtimoiy so'rovlar o'tkazish hamda natijalari bo'yicha aniq vazifalar belgilash.	har oyda bir marta har chorakda bir marta	-	O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti, O'zbekiston yoshlar ittifoqining universitetdagi boshlang'ich tashkiloti, Universitet kasaba uyushmalari boshlang'ich tashkiloti
19.	Talabalar turar joylarida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etish va ularning samaradorligini	1. Talabalar turar joylarida yashovchi talabalar bilan amalga oshiriladigan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar rejasini	doimiy	O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universitetining budjetdan tashqari	O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti, O'zbekiston yoshlar

	<p>oshirish choralarini ko'rish.</p>	<p>ishlab chiqish va amalga oshirish.  2. Talabalar turar joylarini ma'naviy-ma'rifiy yo'nalishdagi targ'ibot vositalari bilan jihozlash, axborot-resurs markazi (kutubxonalar), dam olish, sport-sog'lomlashtirish, kompyuter xonalari va maishiy xizmat shoxobchalarida zarur shart-sharoitlar yaratish.  3. Talabalar turar joylarida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etishda talabalarning o'zini o'zi boshqarish tizimidan keng foydalanish.  4. To'garaklar faoliyatini yo'lga qo'yish va ularda talabalar qamrovini kengaytirish.  5. "Eng yaxshi talabalar turar joyi" tanlovining oliy ta'lim muassasasi bosqichini o'tkazish va tanlov g'oliblarini rag'batlantirish.</p>		<p>mablag'lari doirasida</p>	<p>ittifoqining universitetdagi boshlang'ich tashkiloti, O'zbekiston Jurnalistlari ijodiy uyushmasi</p>
<p>20.</p>	<p>Ijarada yashovchi talabalar bilan ishlash tizimini yanada takomillashtirish.</p>	<p>1. Ijarada yashovchi talabalarning ro'yxati va yashash manzillarini shakllantirish, ular bilan ishlash bo'yicha ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar rejasini tuzish va amalga oshirish.  2. Xonadonlardagi ijtimoiy-ma'naviy muhit, talabalarning yashash sharoiti,</p>	<p>doimiy</p>	<p>-</p>	<p>O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti, O'zbekiston yoshlar ittifoqining universitetdagi boshlang'ich tashkiloti, Toshkent shahar ichki ishlar bosh boshqarmasi</p>

		<p>dars tayyorlashi, dam olishi kabi holatlarni o'rganib borish.</p> <p>3. Ijarada yashovchi talabalarning yashash sharoitlarini nazorat qilish maqsadida profilaktika inspektori, mahalla oqsoqoli, ijarachi (uy egasi), dekan, talaba o'rtasida hamkorlik ishlarini yo'lga qo'yish.</p>			
21.	<p>Professor-o'qituvchilar va talabalar o'rtasida korrupsiyaga qarshi kurash, huquqbuzarlik va jinoyatchilikning oldini olishda jamoatchilik bilan hamkorlikdagi faoliyatni yanada rivojlantirish, profilaktika chora-tadbirlarini samarali amalga oshirish.</p>	<p>1. Professor-o'qituvchilar va talabalar o'rtasida huquqbuzarlik va jinoyatchilikning oldini olishda jamoatchilik bilan hamkorlikdagi faoliyatni amalga oshirish.</p> <p>2. Belgilangan muddatlarda professor-o'qituvchilar va talabalar hamda huquqni muhofaza qiluvchi organlar ishtirokida davra suhbatlarini o'tkazish.</p>	doimiy	-	<p>Toshkent shahar prokuraturasi, Toshkent shahar ichki ishlar bosh boshqarmasi, O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiya markazi universiteti, O'zbekiston yoshlar ittifoqining universitetdagi boshlang'ich tashkiloti</p>
22.	<p>Talabalar davomatini onlayn nazorat qilish tizimini joriy etish.</p>	<p>Universitetda tahsil olayotgan talabalar hamda professor-o'qituvchilar uchun shaxsni identifikatsiyalash (ID) kartasini joriy etish.</p>	2018-yil sentyabr	<p>O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universitetining budgetdan tashqari mablag'lari doirasida</p>	<p>Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti</p>
23.	<p>Universitet professor-o'qituvchilari va talabalari uchun "Yoshlar ijodiyot klubi" faoliyatini samarali tashkil etish.</p>	<p>Universitetning "Yoshlar ijodiyot klubi" bazasida ijtimoiy hududlarni yaratish, jumladan:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- media markaz;</li> <li>- bufet;</li> <li>- Wi-Fi zona;</li> </ul>	2018 — 2020-yillar davomida	<p>O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universitetining budgetdan tashqari mablag'lari doirasida</p>	<p>Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti, O'zbekiston</p>



		- musiqa va ovoz yozish studiyasi; - talabalar teatr studiyasi; - press-klub.			Jurnalistlari ijodiy uyushmasi
<b>IV. Universitetda amalga oshiriladigan qurilish, mukammal ta'mirlash, rekonstruksiya qilish va jihozlash ishlari</b>					
24.	Universitetning o'quv binolari va inshootlarida qurilish-ta'mirlash va hududini obodonlashtirish ishlarini amalga oshirish.	1. Bosh bino va ustaxonada qurilish-ta'mirlash ishlarini bajarish. 2. Ta'lim yo'nalishlarining xususiyatidan kelib chiqqan holda, o'quv binolarida qurilish-ta'mirlash ishlarini bajarish va auditoriyalarni jihozlash. 3. Talabalar turar joyini qurish va jihozlash ishlarini bajarish. 4. Ustaxona binosida Axborot-resurs markazi hamda Yoshlar ijodiyot klubini joylashtirish maqsadida qurilish-ta'mirlash ishlarini bajarish, zamonaviy axborot texnologiyalari vositalari bilan jihozlash. 5. Universitet sport inshootlarida qurilish-ta'mirlash ishlarini bajarish va zamon talablari darajasida jihozlash. 6. Universitet oshxonasida qurilish-ta'mirlash ishlarini bajarish. 7. Universitet hududini zamonaviy landshaft dizayni asosida obodonlashtirish.	2019 — 2021-yillar davomida	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O'zbekiston Respublikasining rivojlanish davlat dasturlarini moliyalashtirish jamg'armasi mablag'lari	Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Investitsiyalar bo'yicha davlat qo'mitasi, Moliya vazirligi, Iqtisodiyot vazirligi, Qurilish vazirligi

25.	Universitetning o'quv binolarini zamonaviy asbob va uskunalardan bilan jihozlash.	Ta'lim va kadrlar tayyorlash sifatini oshirish maqsadida universitetda yangi ochiladigan o'quv laboratoriyalari, mini tele-radio va fotostudiyalarni zamonaviy asbob-uskuna va jihozlardan bilan ta'minlash.	2018 — 2021-yillar davomida	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O'zbekiston Respublikasining rivojlanish davlat dasturlarini moliyalashtirish jamg'armasi mablag'lari	Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Investitsiyalar bo'yicha davlat qo'mitasi, Moliya vazirligi, Iqtisodiyot vazirligi, O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti, O'zbekiston Jurnalistlari ijodiy uyushmasi
-----	---	--	-----------------------------	--	---

(2-ilova O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 30-maydagi PF-5733-sonli Farmoni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 30.05.2019-y., 06/19/5733/3216-son)

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 24-maydagi PQ-3737-son qaroriga 3-ILOVA

### 2018/2019 o'quv yilida O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universitetida bakalavrlar va magistrlar tayyorlash bo'yicha

#### QABUL KVOTALARI

Shifr	Ta'lim yo'nalishlari (mutaxassisliklar) nomi	2018/2019 o'quv yili qabul rejasi		
		Jami	shu jumladan:	
			grant	kontrakt
<b>Bakalavriyat</b>				
	<b>Jami</b>	<b>100</b>	<b>31</b>	<b>69</b>
5220100	Jurnalistika (faoliyat turlari bo'yicha)	60	19	41
	Bosma ommaviy axborot vositalari jurnalistikasi	15	5	10
	Teleradio jurnalistikasi	15	5	10
	Internet jurnalistika	10	3	7
	Xalqaro jurnalistika	10	3	7
	Sport jurnalistikasi	10	3	7
raqamsiz	Axborot xizmati va jamoatchilik bilan aloqalar	20	6	14
raqamsiz	Mediadizayn	10	3	7
raqamsiz	Mediamarketing va reklama	10	3	7
<b>Magistratura</b>				
	<b>Jami</b>	<b>30</b>	<b>8</b>	<b>22</b>
5A220101	Jurnalistika (faoliyat turlari bo'yicha)	9	3	6
	Bosma ommaviy axborot vositalari jurnalistikasi	3	1	2
	Siyosiy-huquqiy jurnalistika	3	1	2
	Internet jurnalistika	3	1	2
5A220101	Oliy jurnalistika kurslari	6	-	6
5A220102	Xalqaro jurnalistika	3	1	2
5A220104	Noshirlik ishi va muharrirlik	3	1	2
5A220105	Axborot xizmatlari texnologiyalari	3	1	2
5A220103	Televideniye va radio eshittirish	3	1	2

raqamsiz	Mediamenedjment	3	1	2
----------	-----------------	---	---	---

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 24-maydagi PQ-3737-son qaroriga  
4-ILOVA

**O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universitetining kadrlar buyurtmachilari ro'yxati va ularga birlashtiriladigan talabalar soni**

T/r	Kadrlar buyurtmachilari nomi	Talabalar soni
<b>Bakalavriat</b>		<b>100</b>
1.	Respublika, viloyat, tuman, shahar ommaviy axborot vositalari	28
2.	O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi	22
3.	Vazirlik va idoralarning matbuot xizmatlari	20
4.	O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi	16
5.	O'zbekiston Milliy axborot agentligi	14
<b>Magistratura</b>		<b>30</b>
1.	Vazirlik va idoralarning matbuot xizmatlari	6
2.	O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti	5
3.	O'zbekiston Milliy axborot agentligi	5
4.	O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi	5
5.	O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi	5
6.	Respublika, viloyat, tuman, shahar ommaviy axborot vositalari	4
<b>Jami</b>		<b>130</b>

Izoh:

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan kadrlar buyurtmachilari ro'yxati va ularga birlashtiriladigan talabalar soniga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 24-maydagi PQ-3737-son qaroriga  
5-ILOVA

**O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklarining amaliyot o'tash obyektlariga birlashtirilishi**

T/r	Ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari nomi	Amaliyot turlari (bakalavriat/magistratura) va o'tkazish obyektlari		
		O'quv-tanishuv amaliyoti obyekti	O'quv amaliyoti obyekti	Ishlab chiqarish amaliyoti/ ilmiy amaliyot (stajirovka) obyekti
1.	Jurnalistika (faoliyat turlari bo'yicha)	1. O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi. 2. O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi. 3. Respublika, viloyat, tuman, shahar ommaviy axborot vositalari.	1. O'zbekiston Milliy axborot agentligi. 2. O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi. 3. O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi. 4. Respublika, viloyat, tuman, shahar ommaviy axborot vositalari. 5. Vazirlik va idoralarning matbuot xizmatlari.	1. O'zbekiston Milliy axborot agentligi. 2. O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi. 3. O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi. 4. "Dunyo" axborot agentligi va axborot agentliklarining xalqaro bo'limlari. 5. Respublika, viloyat, tuman, shahar ommaviy axborot vositalari.

				6. Vazirlik va idoralarning matbuot xizmatlari.
2.	Axborot xizmati va jamoatchilik bilan aloqalar	1. Vazirlik va idoralarning matbuot xizmatlari. 2. Respublika, viloyat, tuman, shahar ommaviy axborot vositalari.	1. Vazirlik va idoralarning matbuot xizmatlari. 2. Respublika, viloyat, tuman, shahar ommaviy axborot vositalari.	1. Vazirlik va idoralarning matbuot xizmatlari. 2. Respublika, viloyat, tuman, shahar ommaviy axborot vositalari.
3.	Mediadizayn	1. O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi. 2. O'zbekiston Milliy axborot agentligi. 3. Respublika, viloyat, tuman, shahar ommaviy axborot vositalari.	1. O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi. 2. O'zbekiston Milliy axborot agentligi. 3. Respublika, viloyat, tuman, shahar ommaviy axborot vositalari.	1. O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi. 2. O'zbekiston Milliy axborot agentligi. 3. Respublika, viloyat, tuman, shahar ommaviy axborot vositalari.
4.	Mediamarketing va reklama	1. O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi. 2. O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi. 3. Respublika, viloyat, tuman, shahar ommaviy axborot vositalari.	1. O'zbekiston Milliy axborot agentligi. 2. O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi. 3. O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi. 4. Respublika, viloyat, tuman, shahar ommaviy axborot vositalari. 5. Vazirlik va idoralarning matbuot xizmatlari.	1. O'zbekiston Milliy axborot agentligi. 2. O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi. 3. O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi. 4. Respublika, viloyat, tuman, shahar ommaviy axborot vositalari. 5. Vazirlik va idoralarning matbuot xizmatlari.
<b>Magistratura mutaxassisliklari bo'yicha</b>				
1.	Jurnalistika (faoliyat turlari bo'yicha)	-	-	1. O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi. 2. O'zbekiston Milliy axborot agentligi. 3. O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi. 4. Respublika, viloyat, tuman, shahar ommaviy axborot vositalari.
2.	Oliy jurnalistika kurslari	-	-	1. O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi. 2. O'zbekiston Milliy axborot agentligi. 3. O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi. 4. Respublika, viloyat, tuman, shahar ommaviy axborot vositalari.

				5. Vazirlik va idoralarning matbuot xizmatlari.
3.	Xalqaro jurnalistika	-	-	1. O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi. 2. O‘zbekiston Milliy axborot agentligi. 3. “Dunyo” axborot agentligi va axborot agentliklarining xalqaro bo‘limlari. 4. Respublika, viloyat, shahar ommaviy axborot vositalarining xalqaro bo‘limlari.
4.	Noshirlik ishi va muharrirlik	-	-	1. O‘zbekiston Matbuot va axborot agentligi. 2. Respublika, viloyat, tuman, shahar ommaviy axborot vositalari.
5.	Axborot xizmatlari texnologiyalari	-	-	1. O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi. 2. Vazirlik va idoralarning matbuot xizmatlari. 3. Respublika, viloyat, tuman, shahar ommaviy axborot vositalari.
6.	Televideniye va radio eshittirish	-	-	1. O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi. 2. “O‘zbekkino” Milliy agentligi.
7.	Mediamenedjment	-	-	1. O‘zbekiston Milliy axborot agentligi. 2. O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi. 3. O‘zbekiston Matbuot va axborot agentligi. 4. Respublika, viloyat, tuman, shahar ommaviy axborot vositalari.

*(Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 25.05.2018-y., 07/18/3737/1271-son; 30.05.2019-y., 06/19/5733/3216-son)*